

ТАРИХ ДАРСЛАРИДА ИНТЕРФАОЛ МЕТОДЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ УСУЛЛАРИ**Баўетдинов Раўаж Аяпбергенович***кафедра мудири Қорақалпоғистон Республикаси
педагогларни янги методикаларга ўргатиш миллий маркази*

Аннотация: *Мақолада таълим тизимида инновацион технологиялардан фойдаланишнинг зарурлиги, тарих дарсларида интерфаол методлардан фойдаланиш усуллари ва уларнинг афзалликлари тўғрисида сўз этилган.*

Калит сўзлар: *Давлат таълим стандарти. Педагогик фаолият. Ўқитиш методикаси. Интерфаол методлар. Тарихий билимлар. Тарихий воқеалар. Чайворд. Иллюстрация, Мослигини топинг. У ким, бу нима?*

Аннотация: *В статье рассматриваются о необходимости использования инновационных технологий в системе образования, способы использования интерактивных методов на уроках истории и их преимущества.*

Ключевые слова: *Государственный образовательный стандарт, Педагогическая деятельность. Методика обучения. Интерактивные методы. Исторические знания. Исторические события. Чайворд. Иллюстрация. Найдите несуществующий. Кто это, что это?.*

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев ўзининг Олий Мажлис ва Ўзбекистон Республикаси халқига йўллаган Мурожаатномасида ўқувчиларда эркин ва креатив фикрлашни, жамоада ишлаш ва мулоқот кўникмаларини шакллантириш зарурлигини алоҳида таъкидлаб ўтди [1].

Ўзбекистон Республикасида таълим-тарбия жараёнига таълимнинг инновацион шакллари ва усуллари жорий этиш масалалари «Умумий ўрта, ўрта махсус таълимнинг давлат таълим стандартининг мақсади, вазифалари ва асосий принципларида ҳам Ўзбекистон Республикасида умумий ўрта ва мактабдан ташқари таълимни тизимли ислоҳ қилишнинг устувор йўналишларини белгилаш, таълим сифатини янги босқичга кўтариш, таълим-тарбия жараёнига ўқитишнинг инновацион шакллари ва усуллари жорий этиш энг муҳим вазифалардан бири қилиб белгиланган [2].

Шундай экан, эртанги буюк келажагимизни яратиш масаласи таълим тизимида олдида катта вазифалар юклайди. Бугунги давр талаби ўқитувчидан ўз фаолиятида информацион-коммуникация ва замонавий педагогик технологиялари асосида дарсларни ташкил қилиш, бунда ўқитувчининг ижодкор бўлишини, фаннинг муҳим муаммолари юзасидана эркин фикр юритиши ва фан ютуқларини ўқувчиларга етказа олишини тақозо этади [3].

Анъанавий таълим беришдан фарқли ўлароқ, интерфаол ўқитиш «таълим жараёнининг асосий иштирокчилари – ўқитувчи, ўқувчи ва ўқувчилар гуруҳи ўртасида юзага келадиган ҳамкорлик, қизғин баҳс- мунозара, ўзаро фикр алмашиш имкониятига эгалик асосида ташкил этилади, уларда эркин фикрлаш, шахсий қарашларини иккиланмай баён этиш, муаммоли вазиятларда ечимларни биргаликда излаш, ўқув материалларини ўзлаштиришда ўқувчиларнинг ўзаро яқинликларини юзага келтириш, «ўқитувчи – ўқувчи – ўқувчилар гуруҳи»нинг ўзаро бир-бирларини ҳурмат қилишлари, тушунишлари ва қўллаб- қувватлашлари, самимий муносабатда бўлишлари, руҳий бирликка эришишлари билан тавсифланади» [4].

Ўқувчилар онгида тарихий билимларни шакллантиришда бугунги кунга таълим тизимига кенг жорий қилинган ўқитишнинг интерфаол методларидан фойдаланиш катта аҳамиятга эга [5]. Бунга асосий сабаб, дарс жараёнида қўлланилган интерфаол методлар ўқувчиларнинг ўзларини мустақил билим олишга чорлайди, дарснинг сифат-самарадорлигини оширишга хизмат қилади. Лекин, бугунги кунда тарих фани ўқитувчилари орасида ҳам дарсларда интерфаол методларни фойдаланишда бир қанча муаммолар мавжуд эканлиги сир эмас. Ўзаро тажриба алмашиш ва фан ўқитувчиларига методик ёрдам бериш мақсадида мақоламизда тарих дарсларида, шунингдек, бошқа фанларда ҳам мавзудан келиб чиқиб фойдаланиши мумкин бўлган интерфаол методларни кўриб ўтамиз.

Чайнворд методи – ўқувчиларнинг ўтилган мавзулар бўйича эгаллаган билимларини амалиётда мустаҳкамлашга ёрдам беради. Ушбу методни амалга ошириш учун ўқитувчи томонидан мавзу мазмунидан келиб чиқиб саволлар тайёрланади ва жадвал асосида ўқувчиларга топшириқ этиб берилади. Жадвалда саволлар охирида жавоблар қовус ичида рақамлар билан келтирилади. Масалан: Келиб чиқиши Фракиялик бўлган юнон файласуфи (8) [6].

Ушбу методнинг абзаллиги, биринчидан, дарсда фанлараро интеграцияни таъминлайди, яъни ўқувчи тўғри ва хатосиз ёзишга ўрганади, иккинчидан, ўқувчилар ўрганган билимларини мустаҳкамлайди, эслаб қолиш қобилиятларини ривожланади, учинчидан, ўқитувчидан ортиқча ресурс талаб этилмайди, синф тахтасидан фойдаланиш имконияти беради, тўртинчидан, ўқитувчига қисқа вақт ичида кўпроқ ўқувчини баҳолаш имкониятини яратади.

Шунингдек тарих дарсларида иллюстрациялар билан ишлаш, тарихий саналар ва воқеаларни, тарихий шахслар ва уларнинг фаолияти, тарихий даврлар ва уларда бўлиб ўтган воқеаларнинг мослигини топишда «Мослигини топинг» машқидан фойдаланиш яхши самара беради. Бунда ўқувчилар яқка тартибда ёки кичик гуруҳларга ажратилган ҳолда топшириқни бажаради.

Ушбу машқнинг афзаллик томони, ўқувчиларнинг дарсга қизиқишини кучайтиради, хотирасини мустаҳкамлайди, синфда юқори кайфиётни фойда этади, иллюстрациялар, ҳар хил жадваллар асосида тарихий билимларни шакллантиради,

натижада ўқувчиларнинг билиш, таҳлил ва хулоса қилиш каби қобилиятларини ривожлантириш имкониятини беради.

6-7-синф ўқувчилари билан дарсликда берилган иллюстрациялар билан ишлашда У ким?, Бу нима? машқидан фойдаланиш ҳам яхши самара беради. Ушбу машқни дарснинг мустақамлаш босқичи ёки уйга вазифа сифатида беришда фойдаланиш тавсия этилади. Машқни бажариш учун ўқувчиларга тарихий шахслар ва воқеаларга оид иллюстрациялар кўрсатилади ёки синф тахтасига илиб қўйилади. Ўқувчилар берилган расм бўйича ҳикоя ёзиши талаб қилинади. Ҳар бир ўқувчи мавзу доирасида ўрганган маълумотлари асосида ўзининг ҳикоясини тузади. Ушбу жараён жудаям қизиқли ва мароқли кечади. Ҳикояни ҳар ўқувчи ҳар хил тузиши мумкин. Машқ якунида ўқувчилардан ўзлари тузган ҳикояларини ўқув бериши талаб қилинади.

У ким? Бу нима? машқини иккинчи усулда ҳам бажариш мумкун. Бунда синф тахтасига тарихий шахсларнинг расмлари илиб қўйилади. Дарсликда берилган маълумотлар ва ўқитувчининг ижодий ёндошуви асосида тайёрланган тарихий шахсларга оид таърифлар ўқувчиларга ўқув берилади. Ўқувчилар эса берилган таъриф асосида тарихий шахснинг кимлигини айтади ва уни тахтадан кўрсатиб беришида мумкин.

Ушбу машқни мавзу мазмунидан келиб чиққан ҳолда ёки бир боб, бўлим бўйича ўтилган мавзулар юзасидан ҳам амалга ошириб ушбу тарзда амалга оширишимиз мумкин.

Хулоса ўрнида шунини айтиш мумкин ки, интерфаол методларни тарих дарсларида ҳар қандай мавзуга мослаштириб ўтиш мумкун. Бунинг учун ҳар бир фан ўқитувчисидан методларни мавзуга мос танлай олиши, топшириқни методлар ва машқларнинг мақсади, қўллаш тартибига амал қилган ҳолда фойдаланиши лозим талаб этилади. Албатта, ноанъонавий дарсларни ташкил эти шва ўтказиш ўқитувчидан билим ва маҳоратни талаб этади. Синфда сифатли ва самарали дарс ўтиш учун ўқитувчи дарс жараёнида ўқувчиларга амал қилиши лозим бўлган қоидаларни ўзларига қабул қилдириши мақул бўлади. Сабаби, дарсда ўқувчиларни гуруҳларга бўлиш ва бошқа вақтларда ҳам шавқумлашиш мумкунлигини кўп кузатилганлиги боис ўқувчилар ўзлари бажарадиган қоидаларни қабул қилгани ва ўни бажаргани дарснинг тинч ўтишига ёрдам беради.

Ҳар бир ўқитувчи ўзининг иш-тажрибасида ноанъонавий дарсларни ўтиб борса, шубҳасиз унинг касбий маҳорати ортиб боради. Шу билан бирга, ўқувчиларнинг дарсга қизиқишлари ва билимга интилишлари жонлантирилади, бу ўз навботида дарс самародарлигини янада оширишга ижобий таъсир қилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси (20.12.2022)
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 6 апрелдаги “Умумий ўрта ва ўрта махсус таълимнинг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида”ги 187 сон Қарори
3. Искандаров, К. А. Ўқитувчиларнинг касбий маҳоратини такомиллаштиришга муносабат: изланишлар, муаммолар, ечимлар // Молодой ученый. — 2016. — № 29.3 (133.3). — С. 13-17. — URL: <https://moluch.ru/archive/133/37854/>
4. Иноятов У.И., Муслимов Н.А., Усмонбоева М., Иноғомова Д. Педагогика: 1000 та саволга 1000 та жавоб: Методик қўлланма. – Тошкент: Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, 2012. – Б.122
5. Тошпўлатов, Я. Фафоров, Тарих ўқитиш методикаси. Т-2010. 160-161 б
6. Сагдуллаев А.С., Костецкий В.А. 6-синф «Тарих» (Қадимги дунё дунья), Т-2017

O'SMIRLARDA AGRESSIV XULQ-ATVORNING SHAKLLANISHI**Subhiddinov Sayfiddin Qahramon o'g'li**

O'zbekiston Milliy Universiteti Jizzax Filiali

1-Kurs Talabasi

Annotatsiya: O'smirlilik davri o'ziga xos murakkab davr bo'lib, aksar bu yosh vakillarida agressiv xulq-atvor kuzatilishi tabiiy holatga aylangan. Maqolada o'smirlilik davrida agressiv xulq ko'rinishlarining tasnifi, korreksion imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: agressiya, frustratsiya, ijtimoiy vaziyat, destruktiv motiv- lashtirish, oila, emotsional tanglik, «agressor», «qurbon».

Abstract: Adolescence is a complex period of its own, and aggressive behavior has become a natural condition in most of the representatives of this age group. The article describes the classification of aggressive behavior in adolescence and the possibilities of correction.

Key words: aggression, frustration, social situation, destructive motivation, family, emotional tension, "aggressor", "victim".

KIRISH

Agressiya va agressiya muammosi uzoq vaqt davomida ijtimoiy psixologiyaning asosiy masalalaridan biri bo'lgan. O'tgan asrning o'rtalaridan boshlab o'smirlardagi tajovuzkor xatti-harakatlarning faol tadqiqotlari o'tkazildi. Ayniqsa, bu muammo hozir juda muhim. O'smirlar o'rtasida tajovuzkor tendentsiyalari o'sish so'nggi yillarda yoshlar jinoyatchilik, ayniqsa o'smir jinoyatlari oshdi. O'smirlarda agressiv xulq-atvorning kelib chiqishi juda dolzarb masala hisoblanadi. Inson agressiyasi ko'rinishlarining turli-tuman va tubsizligidan kelib chiqib, mazkur xulq-atvorni o'rganishda D.Bass tomonidan taklif etilgan konseptual ramkalar bilan chegaralanish juda foydali ekanligi bilan ayon bo'ldi. Uning fikricha, agressiv harakatlarni uchta shkalaga asoslangan holda tasvirlash mumkin. jismoniy, verbal, aktiv-passiv va to'g'ri-egri o'smirlarda agressiyaning kelib chiqishi, oilalarda o'z otasi yoki onasining mehr-oqibatidan bebahra o'sayotgan va adolatsizlikka uchrash natijasida turli xil jinoyatlarga qo'l urish kabi illatlarning namoyon bo'lishi. Ba'zi oilalarda esa ota-ona va farzand o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ijobiy psixologik iqlimda emasligi achinarli holdir. Aksariyat ota-onalar o'z farzandlarini tarbiyaga chaqirishda g'amxorlik, mehribonlik, sabr-toqat, mehr kabi hislatlar bilan yondashish o'rniga, kuch bilan, ayniqsa jismoniy jazo usuli bilan tasir o'tkazadilar. O'z navbatida bu kabi xatti-harakatlar o'smirlarda agressiv xulq-atvorning shakllanishiga zamin bo'ladi. Agressiyaning odatiy namoyishlari quyidagilar hisoblanadi. nizo chiqarish, bosim o'tkazish, majburlash, tilining yomonligi, negativ baholash, hamla qilish yoki jismoniy kuchni qo'llash bo'lsa, yashirin shakllari aloqadan qochish, kimgadir zarar yetkazish maqsadiga befarqlik, o'ziga ziyon yetkazish va o'z joniga

qasd qilish kabilarda namoyon bo'ladi. Agressiya boshqa tirik jonzotga u buni istamagan vaziyatda haqorat yoki ziyon yetkazishni maqsad qilib qo'ygan fe'l-atvorning har qanday shakli degan ta'rif qabul qilingan. U agressiyaga emotsiya, motiv yoki ko'rsatma sifatida emas, balki fe'l-atvor modeli sifatida qarashni taqozo etadi. Bu muhim fikr ko'plab chalkashliklarni tug'diradi. «Agressiya» atamasi ko'p hollarda g'azab kabi salbiy his-tuyg'ular, haqorat qilish va ziyon yetkazish kabi motivlar, hatto irqiy va etnik xurufot bilan assotsiatsiyalanadi. Agressiv xulqning shakllanishi, kuchayishi va namoyon xulqning shakllanishi, kuchayishi va namoyon bo'lishi ko'pincha ijtimoiy muhit bilan bog'liq holda yuz beradi. Shaxsning o'ziga qaratilgan tajavuzkorlik, «autoagressiya» (bunday holat shaxsdagipatalogik o'zgarishlarning ko'rsatgichi bo'lib xizmat qiladi)deb ataladi. O'z joniga qasd qilish, o'ziga tan jarohati yetkazish autoagressiyaning ko'rinishidir. G'arbdagi ayrim mafkuraviy mazrkazlar jahondagi yosh rivojlanish yo'liga kirgan mamlakatlarga information usullarda tazyiq o'tkazish orqali o'zining agressiv xulqini namoyon etmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'smirlarga individual yondoshishining eng murakkab sharti, ularning psixologik xususiyatlarini mukammal bilishdir. Aks xolla, individual yondoshish haqidagi har qanday gap quruq safsata bo'lib qoladi. Shaxsni chuqur va xar tomonlama bilish uni alohida ajratilgan individ sifatida emas, balki jamoa bilan aloqada bilish demakdir. O'smirni o'rganishning quyida gap boradigan barcha tamoyillari ajralmas va o'zaro bir-biri bilan bog'liqdir. Ular quyidagilardan iboratdir:

Birinchi: o'smirning individual xususiyatlari ko'p sonli va xilma-xil bog'lanish va munosabatlar sistemasida bog'likdir. Bu o'smirning biror-bir xususiyati yoki xarakter xususiyati xam o'z-o'zidan namoyon bo'la olmaydi va qayd etilmaydi. Masalan, o'smirga o'tkir va sinchkov aklni payqaymiz. Lekin agar biz uning aqli (bilimiga qaratilganligi, qizikishi) nimaga yo'naltirilganligini, uning sinchkovligi kasbini egallashda namoyon bo'lish-bo'lmasligini, uning o'quvchilar bilan o'zaro munosabatiga ta'sir etish-etmasligini va xokazolarni biz bilib olmasak. bu xususiyatning axamiyati qolmaydi. Yoki, o'smirni irodasiz deb xisoblaydilar. Biroq umuman ruxi sog'lom kishi irodasiz bo'lmaydi. Demak, u qandaydir muayyan vaziyatda, faoliyatning turlarida, muayyan kishilar bilan muomalada irodasiz bo'ladi. Qachon, qayerda, qanday kishilar bilan?

Ikkinchi: bu prinsip - tamoyil - obyektivlik. Inson haqida, hatto o'ta tajribali mutaxassis bo'lmasin, qandaydir bir kishining fikriga karab xulosa chiqarib bo'lmaydi. Axir har qanday sharoitda ham uning fikri shaxsiy, kolaversa, xato xam bo'lib, chiqishi mumkin. Pedagogik psixologik tajribali pedagog talaygina shunday xollarnigina biladi. Kishini to'g'ri tushunish uchun u xaqdagi fikrlarni lekin uni yaxshi biluvchi kishilarning fikrlarini qiyoslab ko'rish kerak. Bu ishini o'smir xaqidagi fikrlari anchagina asosli bo'lgan kishilar - uning otanalari, o'qituvchilari, do'stlari kilishi lozim. Biroq o'smirni o'rganishning obyektivligi u xaqdagi fikrlarni qiyoslash bilan cheklanmaydi. Uni xulq-atvor va faoliyatning turli xil sharoitda bilish va tushunish muhimdir. O'smirning turli kishilarga bo'lgan munosabatiga

berilgan baho o'ta axamiyatli ekaligini ko'shib qo'yamiz, xolos. Bu munosabat bir xilmi, barqarormi yoki tanlab kilinadimi? Masalan, u xammaga xam xurmat bilan munosabatda bo'ladimi yoki fakat o'zi bog'liq bo'lgan kishilargaginami? Hammaga va xar qanday sharoitda dadilmi yoki kuchliroq kishi qo'llab-quvvatlagan sharoitdagina dadilmi? Kishi haqida uning mehnat mahsuliga karab ko'prok narsani bilib olish mumkin. O'smir uchun mehnat mahsuli bu umumiy ta'lim va nazariy predmetlardan yozma ishlar, chizmalar, rasmlar, ishlab chiqarish praktikasi maxsuli, ko'lda yasalgan turli narsa va boshqalardir. Nihoyat, o'smirning so'zi bilan hatti-xarakatini solishtirib ko'rish juda muxim xisoblanadi. Odatda prinsipli, saranjom, irodali, muayyan maqsadni ko'zlagan, shakllangan xarakterli kishining so'zi bilan ishi bir bo'ladi. Bordi-yu kishining so'zi boshqa-yu, ishi boshqa bo'lsa, uning sababini: yuz bergan sharoit tufaylimi, kishining tartibsizligidanmi, turmush tajribasi yo'qligidanmi, irodasizligidanmi yoki boshqa sabab bilan bog'liqligini aniqlash kerak.

Uchinchidan: uchinchi tamoyil - ulg'ayishni o'rganishning dinamikligi. Inson umr bo'yi o'zgarib boradi. Yosh ulg'ayadi. Yosh ulg'aygan sari o'zgarish, asosan, sustlashadi, kamroq seziladi, albatta jismoniy, ba'zi xollarda esa ruhiy xolatdagi o'zgarish juda jadallik bilan ro'y beradi. Ochilgan yangi ijobiy potensialdan foydalanish va muqarrarlashib borayotgan kamchilikka nisbatan o'z vaqtida chora ko'rish uchun bu o'zgarishni ko'ra bilish o'ta muhimdir. O'smir haqida yagona va bir umrga qayd etilgan fikr bo'lmasligi lozim. Afsuski, ba'zan amalda aynan tarbiyasi qiyin o'smirlarga nisbatan shunday holga duch kelamiz.

To'rtinchidan: to'rtinchi prinsip tamoyil o'rganishning dialektikasidir. Pedagog o'smirning muxim asosiy sifatlariga ko'ra bilish, ularni tasodifiy, ikkinchi darajali, barxam topayotgan sifatlardan ajrata bilishi, ukuvchi shaxsidagi karamaqarshiliklarni seza bilishi xamda ularni hal kilishning pedagogik maksadga muvofik yo'llarini dasturlashtirishi lozim. Eng muxim sifatlarning rolini oshirishga yo'l qo'ymaslik kerak. Ancha sezilib turgan narsa emas, balki o'smirning kelgusida o'sishi va tarbiyasida axamiyatli, istikbolli bo'lgan narsa muximdir. Pedagogik jihatdan o'z xoliga tashlab ko'yilgan o'smirlar orasida o'zining tor muhiti: oiladagi axloqsizlik muxiti boshka eng yaqin tevarak-atrofdagilarning salbiy ta'siriga berilgan yoki ta'sirini xali xam boshdan kechirayotganlar oz emas. Tabiiyki, bunday o'smirni kuzatib borishni boshlagan ishining eng avvalo, uning kamchiliklari kurinadi. Ularni, albatta ko'rish va bilish kerak. Birok shaxsning ijobiy, istikbolli jihatlariga kura bilishning axamiyati xam kam emas. chunki uni kayta tarbiyalashga oid barcha, ishni mana shu jihatlariga tayanib ko'rish zarur.

Beshinchidan: beshinchi prinsip-tamoyil o'smirlarni o'rganish doirasidan chikib, xam o'smirni urganish, xam unga tarbiyaviy nuqtai nazardan yondoshish prinsipitamoyili xisoblanadi. Bu pedagogik optimizm prinsipi-tamoyili bo'lib, umuman, tarbiyada juda muxim, kayta tarbiyalashda esa ikki hissa axamiyatlidir.

Oltinchidan: oltinchi prinsip-tamoyil o'rganish professionalizm ya'ni o'smir psixologiyasini chuqur bilish va uni to'g'ri tushuna bilishdan iborat.

Hech qanday ijtimoiy faoliyatda odamzodning o'z-o'ziga ishonchi tarbiya ishidagidek namoyon bo'lmaydi. Hayot tajribasi, pedagogik praktika va o'smirlar bilan muomala ularni tushunishda juda katta yordam beradi, albatta. Lekin bu psixologiya va pedagogikani chuqur o'rganish zaruriyatini sira inkor etmaydi. Ilmiy texnika revolyusiyasi asrida odamlar bilan ishlashda fakat sog'lom fikr va intuisiyaga (yaxshi) tayanib kuya kolish mumkin emas. Yettinchidan, nixoyat o'rganishning yettinchi prinsip-tamoyili, maksad ko'zlaganlikdir. O'smirni o'rganish umumiy tarzda uch vazifani hal etishni ko'zda tutadi: o'smirni o'kitish va tarbiyalash uchun uning eng qulay xususiyati va imkoniyatlarini aniklash, uni o'qitish va tarbiyalashda foydalanadigan vositalarning samaradorligini baholash. O'smirlar bilan olib boriladigan ishning barcha bosqichlarida bu vazifalar pedagog uchun har xil ahamiyat kasb etadi. Ishning birinchi bosqichi (asosan, birinchi o'kuv yilining birinchi yarmi)da o'kituvchilar o'smirlar hakida dastlabki umumiy tasavvur xosil kilib olishlari lozim. Buning uchun ular o'smirlarning shaxsiy delosi, uning oilaviy turmush sharoiti va tarbiyasi bilan tanishadilar, u bilan xamda ota-onasi bilan suxbatlashadilar, uning hatti-harakatini (xulq-atvorini) kuzatadilar. O'smirlik yoshining psixologik xususiyatlari alohida namoyon bo'lgan sharoitlarda ular «O'smirlar kompleks»i va umr bilan bog'lik bo'lgan xulq-atvor buzilishi zsa "pebertash krizis" degan nom oldi. Ushbu davrning umumiy xususiyatlari sifatida jilovlanishi qiyin bo'lgan kuvnoklikdan xafalikka va boshka turli sifatlarini dambadam o'zgarib turishini ko'rsatib o'tish joiz. Shu nuqtai nazardan o'smirlik shaxs xarakterining bazasi sifatida tashvishli davr hisoblandi. Shaxsning intellektualligi, qobiliyati, qizikishlari, dunyoqarashi va boshqa komponentlari jismoniy barkamollikka yetishganidan keyin ham davom etaveradi. Xarakter asosan aynan o'smirlik davrida shakllanib, keyinchalik favquloddagi ta'sirlar yordamida ayrim o'zgarishlarga ega bulish mumkin.

O'smirlik davriga xos bo'lgan muayyan ya'ni, o'smir xulq-atvorining, muhitning ayniqsa yaqinlarining o'zaro ta'siriga bo'lgan xulq-atvor reaksiyasi xam muxim ahamiyat kasb etadi.

O'smirlarda agressiv xulq-atvorning kelib chiqish sabablari

1. Nosog'lom oila muhiti. Ba'zi oilalarda ota-ona bilan farzand o'rtasidagi munosabatning ijobiy psixologik iqlimda emasligi, farzandlar o'rtasidagi kelishmovchiliklar, oiladagi mojarolar, nizolar.

2. Tengdoshlar guruhi. Bolalar oiladan tashqarida o'z tengqurlari, sinfdoshlari bilan bo'lgan munosabatda ham agressiv xatti-harakatlarni o'zlariga singdiradilar. Ko'pgina hollarda bolalar tengdosh do'stlarining xatti-harakatlarini kuzatgan holda o'zlarini agressiv tutishga urinadilar. Haddan tashqari agressiv bolalar esa o'z tengdoshlari orasidan siqib chiqariladi. Bunday bolalar o'zini xo'rlangandek his qilib, o'zi kabi agressiv bolalar guruhidan joy topadilar. Bu esa muammo ustiga muammo tug'diradi.

3. Ommaviy axborot Bugungi kunda bolalarning agressivligini kuchaytirishga ta'sir etayotgan eng kuchli quroldir, degan fikr keyingi paytlarda ko'pchilik tomonidan e'tirof etilmoqda Shu o'rinda oynai jahon orqali namoyish etilayotgan turli jangari filmlar,

ko'rsatuvlar ham bolalarda agressiv xususiyatlarning tarkib topishiga ta'sir qilayotganligi mutaxassislar tomonidan qayd etilmoqda. Bu borada internetning ta'siri ham o'ziga xosligi inkor etib bo'lmaydigan haqiqatdir. Maktab bolalari internet orqali o'zining yosh va psixologik xususiyatlariga mos kelmaydigan ma'lumotlar bilan tanishmoqda, jangarilikni, agressiyani targib etuvchi, shakllantiruvchi turli xil o'yinlarni o'ynash orqali o'zlarining ongosti sohasida agressiv xulqning shakllanishiga sabab bo'lmoqdalar. Agressiv xulq-atvorli o'smirlar bilan olib boriladigan psixokorreksion ishlar.

- a) O'ziga ijobiy baho berishga o'rgatish, xavotirlik darajasini kamaytirish
- b) o'zining va o'zgalarning emotsiya va tuyg'ularini anglashga o'rgatish, diskruktiv emotsiyalarni nazorat qilishni rivojlantirish;
- c) o'ziga va atrofdagilarga ziyon yetmaydigan gazabni chiqaruvchi usullarga orgatish, muammoli vaziyatda bola xulq-atvorida konstruktiv reaksiyalarga orgatish va distruktiv elementlarni bartaraf etish;
- d) ota-onalar, pedagoglar bilan konsultatsiyalar (bolalardagi agressiyani bo'rttiruvchi omillarni kamaytirishga qaratilgan) o'tkaziladi.

Banduraning bixevioristik nazariyasi Tajovuzkorlik vosita orqali o'zlashtiradi; Biologik omillar (masalan, gormonlar, asab tizimi; o'zlashtirish masalan, bevosita tajriba, kuzatish). Tajovuzkorlik yuzaga keltiriladi; Namunalarning ta'siri ostida (masalan, qo'zgatish, diqqat). Ekologik yondashuv Z.Freyd nuqtai nazariga o'xshash bo'lgan agressiyaga evolutsion yondashuv tarafdori K.Lorens tadqiqotlarida yangicha mazmun kasb etdi. Lorensning fikriga ko'ra, tajovuzkorlik barcha jonzotlarda bo'lgani kabi, insonda ham mavjud bo'ladi. U yashash uchun kurash instinktiga asoslanuvchi agressiv energiya organizmda uzoq vaqt davomida muntazam yig'ilib borib, uzluksiz ravishda, qo'qqisdan paydo bo'ladi deb hisoblagan. Shu tariqa, aniq tajovuzkor xatti-harakat quyidagi ikkita vazifani bajarish natijasida yuzaga keladi:

1. Jamlangan tajovuzkor energiyaning miqdori;
2. Agressiyani bo'shashini yengillashtiruvchi stimullarning mavjudligi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, agressiyani yuzaga chiqarishning asosiy sababi bu frustrasiya. Frustrasiya - bu maqsadga erishishga xalaqit qiluvchi barcha to'siqlardir. Agar shaxsning maqsadi kuchli motivasiyalangan bo'lsa va u maqsadining amalga oshishidan qoniqish olishni kutayotgan bo'lsayu, uning bu istagi to'siqqa uchrasa, bunday holatda frustrasiya yanada kuchayishi mumkin.

ADABIYOTLAR :

1. Karimov I.A. «Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori». O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida so'zlagan nutk 1997.
2. Uzbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. 1992. 3. Boboyev X.B., A.X.Saidovlar umumiy taxriri ostida. «Uzbekiston Respublikasi Konstitupiyasini o'rganish». «Uzbekistan» nashriyoti Toshkent-2001.
4. Beshcheva S.A. «Slojnyy mir podrostka». Sverxtovsk 1984.
5. To'laganova G.K. «Yosh davrlari va pedagogik psixologiya kursi buyicha tarbiyasi «qiyin» o'smirlar psixologiyasiga metodik kursyamatar»-
6. Fayziyev Ya. M. «Umumiy va tibbiy psixologiya». Toshkent Abu Ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti 2000.
7. G'oziyev E. G. «Tarbiyasi «Qiyin» o'smirlar psixologiyasi». Lektorga yordam. Toshkent-1984.